

## XORAZMDA HUKMRONLIK QILGAN AFRIG'IYLAR SULOLASI

Usarov Umidjon Abdimavlyanovich

Ilmiy rahbar, Tarix fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori, dotsent  
O'zbekiston Milliy universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasida dotsenti,

Tel.: +99897 741-52-50,

e-mail: [umidjon.usarov@nuu.uz](mailto:umidjon.usarov@nuu.uz)

Safaraliyev Abbasxon Asqarali o'g'li

INTERNATIONAL PUBLICATION CENTER

Ilm-Fan va Ma'naviyat ilmiy tadqiqot kengashi Ma'naviy ishlar bo'limi boshlig'i

Perfect University Ijtimoiy fanlar Tarix

Orcid id: 0009-0007-6007-6524 Tel.: +99891 001-99-77,

e-mail: [abbosxonsafarov@gmail.com](mailto:abbosxonsafarov@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20135492>

**Annotatsiya.** Afrig'iylar sulolasi Xorazm tarixida antik davr merosi bilan ilk o'rta asrlar davlatchiligi o'rtasidagi uzviylikni ifodalagan muhim siyosiy sulolalardan biri hisoblanadi. Maqolada sulolaning kelib chiqishi, Vazamaridlar nomi bilan bog'liq ilmiy qarashlar, Xorazmda mahalliy davlatchilik an'alarining davom etishi, arablar istilosi davridagi siyosiy vaziyat, Chag'on va Xurzod o'rtasidagi ichki kurash, Kat va Gurganj markazlari o'rtasidagi tarixiy jarayonlar hamda Afrig'iylar hukmronligining 995-yilda yakunlanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, yozma manbalar, arxeologik, numizmatik va epigrafik materiallarning Afrig'iylar tarixini o'rganishdagi ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Xorazm, Afrig'iylar, Vazamaridlar, Xorazmshoh, Kat, Gurganj, Chag'on, Xurzod, Qutayba ibn Muslim, arablar istilosi, numizmatika, davlatchilik.

## THE AFRIGHID DYNASTY THAT RULED IN KHWAREZM

**Abstract.** The Afrighid dynasty represents one of the important political dynasties in the history of Khwarezm, reflecting the continuity between the heritage of antiquity and early medieval statehood. The article analyzes the origin of the dynasty, scholarly views related to the name Vazamarids, the continuation of local state traditions in Khwarezm, the political situation during the Arab conquest, the internal struggle between Chaghan and Khurzad, the historical role of Kath and Gurganj, and the end of Afrighid rule in 995. The article also highlights the significance of written sources, archaeological, numismatic, and epigraphic materials in studying Afrighid history.

**Keywords:** Khwarezm, Afrighids, Vazamarids, Khwarezmshah, Kath, Gurganj, Chaghan, Khurzad, Qutayba ibn Muslim, Arab conquest, numismatics, statehood.

## ДИНАСТИЯ АФРИГИДОВ, ПРАВИВШАЯ В ХОРЕЗМЕ

**Аннотация.** Династия Афригидов является одной из важных политических династий в истории Хорезма, отражающих преемственность между наследием античности и раннесредневековой государственностью. В статье анализируются происхождение династии, научные взгляды, связанные с названием Вазамариды, продолжение местных традиций государственности в Хорезме, политическая ситуация в период арабского завоевания, внутренняя борьба между Чаганом и Хурзадом,

историческая роль Кята и Гурганджа, а также завершение правления Афригидов в 995 году. Особое внимание уделяется значению письменных источников, археологических, нумизматических и эпиграфических материалов в изучении истории Афригидов.

**Ключевые слова:** Хорезм, Афригиды, Вазамариды, хорезмшах, Кят, Гургандж, Чаган, Хурзад, Кутейба ибн Муслим, арабское завоевание, нумизматика, государственность.

**Kirish.** Xorazm Markaziy Osiyoning eng qadimiy tarixiy-madaniy vohalaridan biri bo'lib, uning davlatchilik an'analari O'zbekiston tarixida alohida o'rin egallaydi. Amudaryoning quyi oqimida joylashgan bu hudud qadimdan sug'orma dehqonchilik, shaharsozlik, hunarmandchilik, savdo va yozma madaniyat rivojlangan markaz sifatida tanilgan. Xorazmning tarixiy taraqqiyoti bir necha sulolalar, siyosiy markazlar va madaniy bosqichlar orqali shakllangan bo'lib, Afrig'iylar sulolasi ana shu uzluksiz jarayonning muhim bo'g'inidir.

Afrig'iylar sulolasi Xorazm tarixida antik davrdan ilk o'rta asrlarga o'tish jarayonini ifodalagan, mahalliy siyosiy an'analarni saqlagan va arablar istilosidan keyingi murakkab davrda ham Xorazm hukmdorligi ramzini davom ettirgan sulola sifatida qadrlanadi. Sulolaning uzoq hukmronlik qilishi Xorazm davlatchiligining chuqur ildizlarga ega bo'lganini ko'rsatadi. Bu davrni o'rganish orqali Xorazmda hokimiyat tuzilishi, mahalliy zodagonlar mavqei, shahar markazlari, tashqi siyosiy bosimlarga munosabat va islomdan oldingi hamda islomiy davrlar o'rtasidagi tarixiy uzviylikni anglash mumkin.

Afrig'iylar tarixi faqat bir sulola tarixini yoritish bilan cheklanmaydi. Bu mavzu Xorazmning O'zbekiston davlatchiligi tarixidagi o'rni, mahalliy hukmdorlik an'analari, numizmatik va arxeologik dalillarning tarixiy tadqiqotdagi ahamiyati, shuningdek, arablar istilosi sharoitida mahalliy siyosiy tizimlarning taqdiri kabi kengroq masalalar bilan bevosita bog'liqdir.

**Asosiy qism.** Xorazmda Afrig'iylar sulolasining maydonga chiqishi qadimgi Xorazm davlatchiligi taraqqiyotining mantiqiy davomi sifatida qaraladi. Xorazm vohasida ilk davlat tuzilmalari shakllanishi qadimgi irrigatsiya tizimi, shaharsozlik, mudofaa inshootlari va dehqonchilik xo'jaligi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Akshixonkala, Hazorasp, Ko'zaliqir, Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'a, Ayoqal'a, Jonbosqal'a, Gaurqal'a va Kalaliqir kabi yodgorliklar qadimgi Xorazmda yuksak moddiy madaniyat, arxitektura, yozuv va shaharsozlik rivojlanganini ko'rsatadi [1].

Xorazmning qadimgi davlatchilik an'analari Afrig'iylar davrida uzilib qolmadi, balki yangi tarixiy sharoitga moslashgan holda davom etdi. Ilmiy adabiyotlarda Afrig'iylar sulolasi Vazamaridlar nomi bilan ham yuritiladi. Bu nom sulola tarixi, tangalardagi yozuvlar, hukmdorlar ketma-ketligi va yozma manbalardagi ma'lumotlarni talqin qilish bilan bog'liq. Vazamaridlar — Afrig'iylar nomining qo'llanishi sulolaning qadimgi Xorazm hukmdorlik an'analari bilan aloqadorligini ko'rsatadi [1].

Sulolaning kelib chiqishi masalasi tarixshunoslikda muhim o'rin tutadi. Xorazmda miloddan avvalgi II asr oxirlarida yuzaga kelgan hukmdorlar sulolasi ayrim tadqiqotlarda yuyechji yoki toxar kelib chiqishi bilan bog'lanadi. Keyingi bosqichda, III asr oxiri — IV asr boshlarida Vazamaridlar — Afrig'iylar sulolasi hokimiyat tepasiga kelgani ko'rsatiladi. Bu sulolaning siyosiy tarixdagi ahamiyati shundaki, u Xorazmda mahalliy davlat tuzilmasini uzoq vaqt saqlab qoldi va arablar istilosi davrida ham butunlay tugatilmadi [1].

Afrig'iylar davri Xorazmning antik davrdan ilk o'rta asrlarga o'tish bosqichi bilan mos keladi. Bu davrda Xorazmda avvalgi siyosiy-madaniy an'analar saqlangan holda yangi ijtimoiy munosabatlar shakllana bordi. Tuproqqal'a va boshqa yodgorliklardan topilgan yozuvlar, hujjatlar, san'at namunalari va moddiy madaniyat qoldiqlari qadimgi Xorazm jamiyatining murakkab tuzilishga ega bo'lganini ko'rsatadi. Yozma manbalar yetarli bo'lmagan sharoitda bunday arxeologik topilmalar siyosiy va ijtimoiy tarixni tiklashda alohida ahamiyat kasb etadi [2; 5].

Afrig'iylar sulolasi tarixini o'rganishda numizmatik materiallar juda muhimdir. Tangalar hukmdor nomlari, titulatura, siyosiy ramzlar, sulolaviy davomiylik va tashqi ta'sirlarni aniqlashda asosiy dalillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Xorazm tangalaridagi tasvirlar va yozuvlar mahalliy hokimiyat ramzlari saqlanganini, hukmdorlar o'z siyosiy mavqeini tangalar orqali mustahkamlashga harakat qilganini ko'rsatadi. Numizmatik dalillar sulola almashinuvi, hukmdorlar ketma-ketligi va davlatning siyosiy ramzlarini aniqlashda arxeologik materiallardan ham aniqroq ma'lumot berishi mumkin [1; 8].

Xorazmda Afrig'iylar hukmronligi davrida "xorazmshoh" unvoni alohida siyosiy mazmun kasb etdi. Bu unvon Xorazm hukmdorining davlat boshlig'i sifatidagi maqomini bildirgan. Keyingi davrlarda ham "xorazmshoh" unvonining davom etishi Xorazm siyosiy an'alarining mustahkamligini ko'rsatadi. Ma'muniylar, Oltuntoshiylar va Anushteginiylar davrida ham ushbu unvon o'z nufuzini saqlab qoldi. Shu jihatdan Afrig'iylar sulolasi keyingi Xorazmshohlar davlatchiligi uchun siyosiy-ma'naviy zamin yaratgan sulola sifatida baholanishi mumkin [1; 12].

Afrig'iylar davlati ma'muriy markazi sifatida Kat shahri alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Kat qadimgi Xorazmning siyosiy markazlaridan biri bo'lib, hukmdor qarorgohi, boshqaruv tizimi va sulolaviy hokimiyat ramzi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Katning tarixiy o'rni keyinchalik Gurganjning kuchayishi bilan asta-sekin o'zgarib bordi. Shunga qaramay, Afrig'iylar hukmronligi davrida Kat Xorazmning siyosiy markazi sifatida muhim mavqeni saqlab turgan [1].

Afrig'iylar sulolasi hukmronligi uzoq davom etgani bilan ajralib turadi. Ilmiy adabiyotlarda bu sulola III asr oxiri — IV asr boshlaridan 995-yilgacha Xorazmda hukmronlik qilgani ko'rsatiladi. Bunday uzoq davomiylik Xorazmda mahalliy hokimiyat tuzilmasi, zodagonlar qatlami, shahar markazlari va irrigatsion xo'jalik tizimi mustahkam bo'lganini anglatadi. Boshqa ko'plab hududlarda arablar istilosi mahalliy sulolalarni siyosiy maydondan siqib chiqargan bo'lsa, Xorazmda Afrig'iylar sulolasi butunlay tugatilmay, mahalliy boshqaruv an'alarini ma'lum darajada davom ettirdi [1].

Afrig'iylar davlati iqtisodiy jihatdan sug'orma dehqonchilikka tayangan. Xorazmning tabiiy-geografik sharoiti sun'iy sug'orish tizimlarisiz barqaror xo'jalik yuritishga imkon bermagan. Shu sababli kanallar, ariq tarmoqlari, suv taqsimoti va irrigatsion inshootlar davlat boshqaruvining iqtisodiy asosini tashkil etgan. Xorazmda qadimgi sug'orish tizimlarining rivojlanishi haqida yaratilgan tadqiqotlar vohada davlatchilik shakllanishi va xo'jalik boshqaruvi o'rtasida bevosita bog'liqlik bo'lganini tasdiqlaydi [6; 7].

Sug'orma dehqonchilik Xorazmda nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy omil ham edi. Kanallarni barpo etish, ta'mirlash, suvdan foydalanish tartibini nazorat qilish va dehqonchilik hududlarini himoya qilish markazlashgan boshqaruvni talab qilgan. Bu jarayon Afrig'iylar davlati uchun ham muhim bo'lgan. Irrigatsiya tizimining buzilishi yoki kanallarning qurib qolishi shahar va

qishloq hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Arablar istilosidan keyingi iqtisodiy zarbalardan biri ham ayrim kanal va melioratsiya tizimlarining izdan chiqishi bilan bog'langan [1; 6].

Afrig'iylar davrida Xorazmning moddiy madaniyati mahalliy an'analar bilan tashqi ta'sirlar uyg'unligida rivojlandi. Qal'a-shaharlar, mudofaa devorlari, saroy qoldiqlari, sopol buyumlar, tangalar va yozuvlar vohada o'ziga xos madaniy muhit mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida qadimgi Xorazm sivilizatsiyasi Markaziy Osiyo tarixining yorqin hodisalaridan biri sifatida ilmiy jamoatchilikka tanitildi. Bu ekspeditsiya ishlari Xorazm arxeologiyasi, irrigatsiya tarixi, qadimgi yozuvlar, numizmatika va diniy tasavvurlarni o'rganish uchun mustahkam asos yaratdi [2; 3; 4; 5; 8; 9].

Afrig'iylar hukmronligi davrida Xorazmning diniy hayoti islomdan oldingi mahalliy e'tiqodlar, zardushtiylik an'analari va keyinchalik islom ta'siri bilan bog'liq murakkab jarayonni boshdan kechirdi. Qadimgi Xorazm ko'plab tadqiqotlarda zardushtiylik an'analari bilan aloqador hududlardan biri sifatida ko'riladi. Arablar istilosidan keyin islom dini asta-sekin siyosiy va ijtimoiy hayotga kirib bordi. Biroq diniy o'zgarishlar darhol va bir tekis yuz bermadi; mahalliy an'analar ma'lum vaqt davomida saqlanib qoldi [1; 10].

Arablar istilosi Afrig'iylar sulolasi tarixida tub burilish yasadi. VIII asr boshlarida Movarounnahr va Xorazmga arab qo'shinlarining kirib kelishi mahalliy siyosiy tuzilmalar taqdiriga katta ta'sir ko'rsatdi. Qutayba ibn Muslimning Xorazmga yurishi arafasida Xorazmda ichki siyosiy ziddiyatlar mavjud edi. Chag'on va Xurzod o'rtasidagi qarama-qarshilik arablar uchun qulay vaziyat yaratdi. Chag'on o'z raqibiga qarshi kurashda arablar yordamiga tayanib, Xorazmning mustaqil siyosiy mavqeiga jiddiy zarba berdi [1].

Chag'on va Xurzod voqeasi Afrig'iylar davlati ichidagi siyosiy tarqoqlik va mahalliy hukmdorlar o'rtasidagi ziddiyatlarning tashqi kuchlar tomonidan qanday ishlatilganini ko'rsatadi. Qutayba ibn Muslim Xurzodni tor-mor etgach, Chag'onni Xorazm hukmdori sifatida saqlab qoldi. Bu arablar uchun ma'muriy jihatdan qulay yo'l edi: mahalliy hukmdor saqlanadi, lekin uning siyosiy mustaqilligi cheklanadi. Shu tariqa Afrig'iylar sulolasi tashqi jihatdan davom etgan bo'lsa-da, Xorazmning mustaqil siyosati ancha zaiflashdi [1].

Arablar istilosi Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ham og'ir ta'sir ko'rsatdi. Katta xiroj va tovonlar undirilishi, ayrim shahar va yirik manzilgohlarning talafot ko'rishi, hunarmandlar, dehqonlar va savdogarlarning asir olinishi ishlab chiqarish va savdoga salbiy ta'sir qildi. Ayrim aholining yashash joylarini tark etishi, sug'orish tizimlarining izdan chiqishi, Gauhar va Kaltaminor kanallari bilan bog'liq muammolar vohaning xo'jalik hayotida inqiroz belgilarini kuchaytirdi [1; 6].

Shunga qaramay, Xorazmda mahalliy hukmdorlik an'analari to'liq tugab ketmadi. Arablar istilosidan keyin ham o'ng qirg'oq Xorazmda Vazamaridlar — Afrig'iylar sulolasi hokimiyatni davom ettirgani qayd etiladi. Ayrim hukmdorlarning musulmon bo'lgani, tashqi siyosiy aloqalar, jumladan, Xitoyga elchilar yuborilishi Xorazm hukmdorlarining mintaqaviy siyosiy hayotda faol bo'lganini ko'rsatadi. 751-yilda Xorazmshoh Savshafan elchilarining Tan imperatori tomonidan qabul qilinishi, 762-yilda esa Turksabaning Xitoyga elchilik yuborgani bu davrda Xorazmning tashqi aloqalari saqlanganini ko'rsatadi [1].

Afrig'iylar davrida Xorazmning siyosiy holati bir necha omillar ta'sirida shakllandi. Birinchidan, vohaning geografik joylashuvi uni Movarounnahr, Xuroson, Dashti Qipchoq va Eron oralig'idagi muhim hududga aylantirdi. Ikkinchidan, Amudaryo quyi oqimidagi sug'orma

dehqonchilik, savdo yo'llari va hunarmandchilik iqtisodiy asos bo'lib xizmat qildi. Uchinchidan, mahalliy sulolaviy an'analar va zodagonlar guruhi davlat boshqaruvida uzluksizlikni ta'minladi. To'rtinchidan, arablar istilosi, xalifalik siyosati va keyingi musulmon sulolalarining ta'siri Xorazmning tashqi siyosiy mavqeini cheklab bordi.

IX–X asrlarda Xorazmda siyosiy kuchlar nisbatida o'zgarish yuz bera boshladi. Katdagi Afrig'iyalar hokimiyati bilan Gurganjning iqtisodiy va siyosiy ahamiyati o'rtasidagi tafovut kuchaydi. Gurganj savdo, hunarmandchilik va madaniy aloqalar markazi sifatida yuksalib bordi. Bu jarayon Afrig'iyalar sulolasining tarixiy maydondan ketishiga olib kelgan ichki sabablar qatorida baholanishi mumkin. Gurganjning kuchayishi keyinchalik Ma'muniylar davlatining shakllanishi uchun zamin yaratdi [1].

995-yil Afrig'iyalar sulolasi tarixida yakunlovchi sana sifatida ko'rsatiladi. Abu Rayhon Beruniy ma'lumotlariga tayanilgan holda Afrig'iyalar uyining oxirgi vakillari qatl etilgan davrgacha Xorazmda mazkur sulola hukmronligi davom etgani qayd etiladi. Bu sana Afrig'iyalar davrining tugashi va Xorazmda Ma'muniylar davrining boshlanishi bilan bog'liq. 995-yildan keyin Gurganj markazidagi Ma'muniylar sulolasi siyosiy maydonga chiqib, Xorazmni musulmon Sharqining yirik ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylantirdi [1; 12].

Afrig'iyalar sulolasining tugashi Xorazm davlatchiligi uzilganini anglatmaydi. Aksincha, bu voqea Xorazm tarixida siyosiy markaz va sulolaning almashganini bildiradi. Ma'muniylar davrida Xorazmda ilm-fan, madaniyat, shahar hayoti va diplomatik aloqalar yuksaldi. Keyinchalik Oltuntoshiylar va Anushteginiylar davrida “xorazmshoh” unvoni va Xorazmning siyosiy an'analari yanada kengroq miqyosda davom etdi. Shu sababli Afrig'iyalar sulolasini Xorazm davlatchiligi tarixidagi mustaqil, lekin uzviy bosqich sifatida baholash kerak.

Afrig'iyalar tarixini o'rganishdagi eng katta muammolardan biri manbalar cheklanganligidir. Ilk o'rta asr Xorazmi bo'yicha yozma manbalar kam, ayrim ma'lumotlar keyingi mualliflar orqali yetib kelgan, hukmdorlar ro'yxati va sanalarda farqlar mavjud. Bunday sharoitda arxeologiya, numizmatika va epigrafika dalillari muhim ahamiyat kasb etadi. Tangalar hukmdor nomlarini, epigrafik matnlar ijtimoiy tuzilmaning ayrim belgilarini, arxeologik topilmalar esa shaharsozlik va xo'jalik hayotini ochib beradi [1; 5; 8].

Afrig'iyalar sulolasi tarixshunoslikda nafaqat Xorazmning mahalliy sulolasi, balki O'zbekiston davlatchiligi tarixining uzluksizligini ko'rsatuvchi muhim siyosiy hodisa sifatida ham baholanadi. Xorazmning qadimiy davlatchilik tajribasi, arablar istilosidan keyingi moslashuvchan siyosiy tizim, mahalliy hukmdorlik an'anasining saqlanishi va 995-yilgacha davom etgan sulolaviy hokimiyat bu sulolaning tarixiy ahamiyatini oshiradi.

**Xulosa.** Xorazmda hukmronlik qilgan Afrig'iyalar sulolasi O'zbekiston davlatchiligi tarixida alohida o'rin tutadi. Bu sulola Xorazmning qadimgi siyosiy an'alarini ilk o'rta asr sharoitida davom ettirgan, mahalliy hokimiyat ramzlari va boshqaruv tizimini saqlagan hamda arablar istilosidan keyingi murakkab davrda ham Xorazm siyosiy hayotida muhim mavqeni egallagan.

Afrig'iyalar davri Xorazm tarixida antik meros va islomiy o'rta asrlar o'rtasidagi o'tish bosqichini ifodalaydi. Bu davrda mahalliy sulolaviy hokimiyat, “xorazmshoh” unvoni, sug'orma dehqonchilikka asoslangan xo'jalik, shaharsozlik, tangalar zarbi va madaniy an'analar davom etdi. Arablar istilosi Xorazmning siyosiy mustaqilligini cheklagan bo'lsa-da, Afrig'iyalar sulolasi darhol tugatilmadi.

Sulolaning 995-yilgacha davom etgan hukmronligi Xorazm davlat tuzilmasining mustahkam ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy asosga ega bo'lganini ko'rsatadi. Kat shahri,

Gurganjning keyingi yuksalishi, Chag'on va Xurzod o'rtasidagi ichki kurash, Qutayba ibn Muslim yurishi, tangalar va epigrafik ma'lumotlar Afrig'iylar tarixini Xorazm davlatchiligi taraqqiyotida muhim bosqich sifatida baholash imkonini beradi.

Afrig'iylar sulolasining tugashi Xorazm tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Ma'muniylar davrida Xorazm siyosiy, ilmiy va madaniy jihatdan yuksaldi, biroq bu yuksalish Afrig'iylar davrida shakllangan mahalliy davlatchilik an'analari va tarixiy tajribadan uzilgan holda yuz bermadi. Shu jihatdan Afrig'iylar sulolasi Xorazm tarixida mahalliy davlatchilik barqarorligini ta'minlagan, keyingi Xorazmshohlar an'alariga zamin yaratgan yirik tarixiy sulola sifatida baholanishi lozim.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Хорезм в истории государственности Узбекистана / отв. ред. Э.В. Ртвеладзе, Д.А. Алимова. – Ташкент: Издательство «Узбекистан файласуфлари миллий жамияти», 2013. – 336 с. + 32 с. ил.
2. Толстов С.П. Древний Хорезм: опыт историко-археологического исследования. – Москва: МГУ, 1948.
3. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – Москва; Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1948.
4. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – Москва: Издательство восточной литературы, 1962.
5. Лившиц В.А. Документы // Топрак-кала. Дворец. Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. – Москва: Наука, 1984. – Т. XIV.
6. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Ташкент: Издательство Академии наук УзССР, 1957.
7. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья: в связи с историей возникновения и развития орошаемого земледелия. – Москва: Наука, 1969. – 256 с.
8. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – Москва: Наука, 1977.
9. Неразик Е.Е. Сельские поселения афригидского Хорезма. – Москва: Наука, 1966.
10. Рапопорт Ю.А. Из истории религии древнего Хорезма. – Москва: Наука, 1971.
11. Рапопорт Ю.А., Неразик Е.Е., Левина Л.М. В низовьях Окса и Яксарта: образы древнего Приаралья. – Москва: Индрик, 2000.
12. Бируни Абу Рейхан. Избранные произведения. – Ташкент: Издательство Академии наук УзССР, 1957. – Т. I.
13. Бартольд В.В. Хорезм // Сочинения. – Москва: Наука, 1965. – Т. III.
14. Босворт К.Э. Мусульманские династии: справочник по хронологии и генеалогии / пер. с англ. – Москва: Наука, 1971.